

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

RUSTAMOV ISLOMBEK ODILBEKOVICH

**QADIMIY XORAZM PAXSADEVOR OBIDALARINI ME'MORIY
XUSUSIYATLARI VA ULARNI SAQLASH TAMOYILLARI**

**18.00.01–Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash**

**ARXITEKTURA bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on architecture**

Rustamov Islombek Odilbekovich

Qadimiy Xorazm paxsadevor obidalarini me'moriy
xususiyatlari va ularni saqlash tamoyillari.....3

Рустамов Исломбек Одилбекович

Особенности и принципы сохранения
глинобитных памятников Древнего Хорезма.....23

Rustamov Islombek Odilbekovich

Features and principles of conservation of
adobe monuments of Ancient Khorezm41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....44

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

RUSTAMOV ISLOMBEK ODILBEKOVICH

**QADIMIY XORAZM PAXSADEVOR OBIDALARINI ME'MORIY
XUSUSIYATLARI VA ULARNI SAQLASH TAMOYILLARI**

18.00.01–Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash

**ARXITEKTURA bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/A127-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.karsu.uz>) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Durdiyeva Gavhar Salaevna
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sulaymanov Salamat Arepbayevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Shoisoyev Izatullo Kenjaevich
arxitektura fanlari doktori (DSc), dotsent

Etakchi tashkilot:

Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.A.20.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____, soat ____:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Sh.Abdirov ko'chasi, 1-uy Axborot resurs markazi majlislar zali. tel.: +998612236078 e-mail: karsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230101, Nukus shahri, Sh.Abdirov ko'chasi, 1-uy. tel.: +998612236078)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ____-_____ kuni tarqatildi.

(2025 yil "_____" _____ 1/2024-2 raqamli reestr bayonnomasi).

J. K. Shnekeev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, arxitektura fanlari doktori (DSc), dotsent

B. Y. Kidirbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A. T. Ilyasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo xaritasida 21 foiz hududda 5000 yillik tarixga ega ekologik sof gil xomashyosidan bugungi kunda ham bino va inshootlarni, turar-joylarni tiklashda qo'llanilmoqda va an'anaviyligi davom etmoqda. Eng qadimgi o'lkalardan hisoblangan Mesopotamiya, Bobil va Troyaning turar-joy binolari, saroylari va qal'a devorlari loydan qurilgan. MDH va Jahon davlatlaridagi bizgacha yetib kelgan paxsadevor yodgarliklar (35%)¹, jumladan "Buyuk Xitoy devori" (1980), AQShning Nyu-Meksiko shtatidagi "Pueblo de Taos" majmuasi (1985)², Yamandagi "Shibam" aholi punkti (1982)³, Erondagi "Arg-e Bam" qal'asi, "Batu Saroyi" (1991), Liviyadagi "Qadimgi Gadames" shahri (2001) Xitoydagi "Tulou uylari" (2008) kabi bir qator qadimiy binolar YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi diqqatga sazovodir⁴. Afsuski, atmosferaning salbiy ta'siri natijasida ushbu noyob paxsadevor obidalarining katta ko'pchiligi (40%) yemirilib, yo'qolib bormoqda. Dunyo miqyosida gil xomashyoli me'moriy yodgorliklarning arxitekturaviy va qurilmaviy holatlariga texnogen va ekologik ta'sirlarni tahlil qilish, tarixiy ma'lumotlarni to'plash, monitoring-kuzatuv ishlarini tashkil etish, obidalarni konservatsiya qilishda asl qiymatini saqlab qolish, yodgorliklarni qayta qurish va tiklash bo'yicha sifatni ta'minlash kabi ishlar paxsadevor obidalarining umrini uzaytirish va ularni kelajak avlodga asl holida etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda paxsadevor me'moriy obidalarni muhofaza qilish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: qadimiy shaharlar barqarorligini ta'minlash, paxsadevor tarixiy me'moriy obidalarining muhofaza zonasini tiklash, yo'qolib borayotgan obidalarining turli parametrlari bo'yicha ma'lumotlar bankini tuzish, paxsadan tiklangan antik avrga oid me'moriy yodgorliklar asosida sayyohlik yo'nalishlarini kengaytirish kabi ahamiyatli tadbirlar takomillashtirilmoqda. YUNESKO, BMT, ICOMOS tomonidan - Butun jahonning madaniy va tabiiy merosni himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi (1972); Tarixiy qal'alarni himoya qilish haqidagi xalqaro xartiya (Vashington xartiyasi, 1987); Tarixiy yodgorliklarni, qal'alar guruhini va diqqatga sazovor joylarni ro'yxatga olish bo'yicha asosiy qonun qoidalari (1996); Konservatsiya, tahlil qilish va me'moriy yodgorliklarning tuzilishini qayta tiklash bo'yicha asosiy qonun-qoidalari (2003) kabi xalqaro hujjatlarning muntazam ravishda qabul qilinishi bu sohaning naqadar muhimligini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sohada "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"da shaharsozlik va me'morchilikni yanada takomillashtirish, tarixiy shaharlar bo'yicha ichki turizmini yanada rivojlantirish, me'moriy yodgorliklarni saqlash, atrof-muhitini yaxshilash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etish chora-tadbirlari belgilangan. Ilmiy muassasalarda paxsadevor me'moriy va arxeologik yodgorliklarini saqlash va

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Arg-e_Bam

² https://en.wikipedia.org/wiki/Taos_Pueblo

³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Shibam>

⁴ Spisok vseirnogo naslediye YUNESKO: <http://whc.unesco.org/en.list>.

ta'mirlashga oid ilmiy tadqiqot ishlari ham amalga oshirilmoqda. "Madaniy meros obyektlari xalqning bebaho boyligi, ularni asrash va avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimizdir. Yurtimizdagi tarixiy obidalarni saqlash va ta'mirlash, buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini obod etish bo'yicha oldimizda hali qanchadan-qancha vazifalar turibdi"⁵. Bu borada O'zbekiston Respublikasining tarixiy shaharlarini va me'moriy obidalarini, ayniqsa bugungi kunda atmosfera ta'siridan yemirilib, buzilib borayotgan gil xomashyoli qadimiy qal'alarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni saqlab qolish hamda to'g'ri ta'mirlash ishlarini tashkil qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 iyundagi PQ-5150-son "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda 2018 yil 16 yanvar F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishida va sohaga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimi shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qadimiy Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarini, moddiy-madaniy meroslarini ilk bora o'rgangan yevropalik olimlar J.Xeynbey⁶ va X.Vamberilardir⁷. Shuningdek, arab geograflari, sayyohlaridan al-Makdisi, al-Istaxri, ibn Batutalarning yozma manbalarida va esdaliklarida ham qadimiy Xorazmning mahobatli qal'alari va saroylari to'g'risida aytib o'tilgan.

1932-33yillar davomida A.Y.Yakubovskiy va M.Y.Masson tomonidan Ko'hna Urganch va Mizdakxon majmualarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. 1936-yildan boshlab S.P.Tolstov⁸ boshchiligida T.Mirg'iyosov va R.Nabiyevlar qadimiy Xorazm vohasida arxeologik tadqiqotlarni o'tkazganlar. 1952-yildan Xorazm me'moriy yodgorliklarini o'rganishning keyingi bosqichi arxeologlardan Yagodin V.N.,

⁵Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, siyosiy partiyalar bilan bo'lgan yig'ilishdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi.-2017. -13-iyul. №137

⁶Hunway J. An historical account of British trade over the Caspian Sea: With the authors journal from England throught Russia; and Back Russia, Germany and Holland 2 d ed., revised and corrected. Vol. I-II. -London, 1754.

⁷Vamberi X. Vuxoro yohud Movarounnaxr tarixi. - T., 1991.

⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948. – С. 25-56; Толстов С.П. По следам древне хорезмийской цивилизации. – Москва-Ленинград, 1948. – С. 100-112; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Восточной литература, 1962. – С. 56-68; Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: ЎзФАН, 1964. 77-78, 97-99, 102-103, 139-140;

Xodjaniyazov G., Mambetullaev M. va boshqa ilmiy xodimlar tomonidan Chilpiq qal'a, Mizdakxon, Xiva Ichan Qal'ada, Tuproqqal'ada tadqiqotlar olib borishgan.

Tarixiy me'moriy yodgorliklarining tipologik masalalriga oid tadqiqotlarni - Nerazik Ye., G'ulomov Y.⁹, Bulatova V.A., Notkin I.I., Masson M.Y., Zasiptkin B.N., Bartold V., Rempel L.I., Ratiya Sh.Y., Zohidovlar P.Sh., Bulatov S., kabi bir qator olimlar olib borishgan. A.N.Gertman¹⁰, G.A.Pugachenkova¹¹, Nerazik E.E.¹² va Mankovskaya L.Y.¹³, esa Xorazm me'moriy obidalarining qurilmalari, me'moriy tuzilishi, tiklanish uslubi to'g'risidagi tadqiqotlarni olib borishgan. O'zbekiston tarixiy shaharlarini, madaniy meros obidalarini o'rganishga bag'ishlangan ishlardan Abdurasulov R.R.¹⁴, Bartold V.V.¹⁵, Vyatkin V.L.¹⁶, Voronina V.L.¹⁷, Dmitriyev V.M.¹⁸, Zohidov P.Sh.¹⁹, Lavrov V.A.²⁰, Masson V.M.²¹, Nilsen V.A.²², Notkin I.I.²³, Pugachenkova G.A.,²⁴ Polupanov V.M.²⁵, Rempel L.I.,²⁶ Suxareva O.A.²⁷, Chekayeva R.U.²⁸, kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, Ahmedov M.K.²⁹, Nozilov D.A.³⁰, Po'latov X.Sh.³¹, Ziyayev A.A.³², O'rolov A.S.³³, Salimov O.M.³⁴, Yusupova M.A.³⁵, Durdiyeva G.S.³⁶, Nurmuxamedova Sh.Z.³⁷, Mamatmusaev T.Sh., Reyimboyev Sh.S., Yunusov Sh., Shnekeev J., Kidirbayev B., Kaliyev N., Atoshev S. va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan tarixiy shaharlarning shaharsozlik masalalari, majmualar, me'moriy obidalarining kompozitsiyasi, yodgorliklarning muhofaza

⁹ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, Фан, 1959. – Б. 157.; Гулямов Я. Памятники города Хивы. – Ташкент: Фан, 1941 – С. 21.

¹⁰ Gertman.AN..Stroitel'naya tekhnika drevnego Xorezma. Avtoreferat. Moskva:1989.

¹¹ Pugachenkova G.A. Zochestvo Sentralnoy Azii XV vek. Vedushiy tendensii i cherty. //T.:1976

¹² Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. – Москва: Наука, 1966. – С. 50-92; Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.): – Москва:Наука, 1976. – С. 42-54;

¹³ Mankovskaya L. Yu. Pamyatniki arxitektury Xorezma. Monografiya. Tashkent:1989.

¹⁴ Abdurasulov R.R. "Arxitektura narodnogo jilisha Uzbekistana", Arxitekturnoye naslediyе Uzbekistana, T., 1960. -36 s.

¹⁵ Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. // Sobr.soch.: v 9 t. T. II (1). – Moskva., 1963.

¹⁶ Vyatkin V.L. Pamyatniki drevnostey Samarkanda. //Ob'yasnitelnyy tekst k "Albomu fotograficheskix snimkov Samarkandskix pamyatnikov drevnostey". – Samarkand, 1927. – 32 s.;

¹⁷ Voronina V.L. Narodnye traditsii arxitektury Uzbekistana. M.: Gos.izd.arx.i stroy. 1951. – 166 s.

¹⁸ Dmitriyev V.M. Voprosy ispolzovaniya arxitektury uzbekskogo narodnogo jilisha v sovremennoy praktike. – T.: "Fan" Uzbekskoy SSR 1980 g.- 63 s.;

¹⁹ Zoxidov P.Sh. Me'mor san'ati. – Tashkent: "Adabiyot va san'at", 1978.– 102 s.;

²⁰ Lavrov V. A. Gradostroitel'naya kultura Sredney Azii – M.: Gos. izd. Arx. i grad. 1950. – 179 s.;

²¹ Masson V.M., Merpert N.Ya. Arxeologiya SSSR. Eneolit SSSR. – Moskva. "Nauka", 1982. – 359 s.;

²² Nilsen V.A., Manakova V. I. "Arxitekturnyy dekor pamyatnikov Uzbekistana". L., 1974. - 122 s.

²³ Notkin I. I. Iskustva drevnix. T.: "Uzbekistan". 1968 – 48 s.

²⁴ Pugachenkova G.A., Ryempel L.I. Istoriya iskusstv Uzbekistana s drevneyshix vremyon do serediny XIX veka. – Moskva.: Izd-vo "Iskusstvo", 1965. – 686 s.;

²⁵ Polupanov S. N. Jiloy dom v Starom Samarkande, "Arxitektura SSSR", 1937, №1.

²⁶ Rempel L.I. Dalekoye i blizkoye. Buxarskiye zapisi. Tashkent: Izd-vo im. G Gulyama, 1981. – 301 s.;

²⁷ Suxareva O.A. Pozdnefeodalnyy gorod Buxara: Sb. nauch. tr. Tashkent, 1979. – 182 s.

²⁸ Chekayeva R.U. Arxitektura XVI–XX vekov Buxarskogo oazisa – Avtoreferat kand.diss. Leningrad,1978 g.;

²⁹ Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo Me'morchilik tarixi.//T.:1995.

³⁰ Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер. – Т.: "Фан", 2005. – 216 б.

³¹ Пулатов Х. Ш., Маматмусаев Т. Ш. Шаҳарсозлик ёдгорликларини қайта тиклаш. Монография. – Т.: ТАҚИ, 2016.

³² Зияев А. А. Тошкент. 2 том. . – Т., 2012. – 22-43 б.

³³ Уралов А. С., Рахимов Л. А. Темурийлар архитектураси тарихи. СамДУ нашри, Самарқанд, 2020 – 246 б.

³⁴ Salimov A. M. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish.– T.: "Navruz", 2020. – 320 b.

³⁵ Yusupova M. A. Buxarskaya shkola zochestva XV-XVII v.v.: Diss. dok.arxitektury. – T., 2000 g. – 327 s.;

³⁶ Durdiyeva G.S. Xiva me'moriy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash metodologiyasini takomillashtirish. Ma'ruza shaklidagi arx.fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. T., 2017.

³⁷ Нурмухамедова Ш. З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Автореферат дисс. доктора наук (DSc) по архитектуре. Т. 2019. – 59 с.

hududlarini tashkil etish, badiiyligiga putur yetkazmaslik, amaliy san'at masalalari tadqiq qilingan.

Ammo, Qadimiy Xorazm me'morchiligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan paxsadevor obidalarini arxitekturaviy va qurilish nuqtayi nazaridan o'rganish hamda ularni saqlab qolish masalalariga oid tadqiqotlar maxsus tadqiq qilingan emas. Shu xususida aytish joizki, tarix va arxeologiya yo'nalishlarda qadimiy Xorazm paxsadevor obidalari S.P.Tolstov, Y.G'ulomov, J.Iabborov, G'.Xo'janioyozov, V.L.Voronina, V.Bulatovalar tomonidan umumiy me'moriy yodgorliklar majmuasi tarkibida o'rganilgan. Bu o'rganilgan ishlarni paxsadevor me'moriy obidalar tuzilishi, qurilmalari, virtual ko'rinishi masalalari nuqtayi nazardan yetarli deyish qiyin. Bu esa o'z navbatida qadimiy Xorazm vohasi paxsadevor me'moriy obidalarini tiklashdagi qonuniyatlarni, an'anaviy tamoyillar va printsiplarni jiddiy tadqiq etishni talab etadi. Paxsadevor yodgorliklardan turizm sohasini rivojlantirishda samarali foydalanish ham mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzu doirasida ilk marotaba Xorazm vohasi me'morchiligida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan paxsadevor me'moriy obidalarini qurilish usullari, me'morchilik kompozitsiyasi, qurilish ashyolari, bunyod etilish tarixi va boshqa bir qancha indikatorlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda ba'zi yemirilib yo'qolib borayotgan paxsadevor obidarining grafik loyihasi AKT dasturi yordamida ishlanadi. Ilmiy tadqiqot ishida qadimiy shaharsozlik markazlarini shakllantirishda paxsa obidalarini qayta tiklashning zaruriyati, umumiy qonuniyatlari, uyg'unligi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Xorazm Ma'mun akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq AL-392103083-son "O'zbekiston me'moriy obidalarining tarixiy holati bo'yicha monitoring olib borish va innovatsion ma'lumotlar bazasini yaratish" (2023-2025 y.y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qadimiy Xorazm hududidagi gil xomashyoli me'moriy obidalarda qo'llanilgan an'anaviy usullarini, ashyolarni tarixiy izchillikda aniqlash, AKT yordamida ularni saqlash va ta'mirlashda an'anaviy ta'mirlash metodologiyasini takomillashtirish va paxsadevor obidalarining bugungi kundagi holatini aniqlash asosida elektron ma'lumotlar bazasini tuzishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qadimiy Xorazm paxsadevor me'moriy obidalar bo'yicha arxiv manbalarni umumlashtirish, qo'llanilgan an'anaviy qurilish materiallarining va usullarni tahlil qilish hamda ma'lumotlarni me'morchilik talablari asosida tizimlashtirish;

Qadimiy Xorazmdagi 37-ta paxsadevor me'moriy obidalarini bugungi kundagi holati bo'yicha natura holida monitoring kuzatuv ishlarini olib borish;

paxsadevor me'moriy obidalarining qurilmalarini bugungi kundagi qurilish amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilish, xorijiy mamlakatlardagi gilxomashyodan tiklangan tarixiy bino va obidalarini o'rganish va tahlil qilish;

paxsadevor me'moriy obidalarining saqlash va ta'mirlashga qaratilgan amaliy tadqiqot ishlarini bajarish uchun ob'ekt tanlash va 8 xil qorishma turlarini tajribada sinash natijasida yemirilishiga chidamli qorishmani aniqlash;

paxsadevor me'moriy obidalarining bugungi kundagi holatidan kelib chiqib, ulardan olingan namunalarni mustahkamlikka sinash tadqiqotini bajarish;

AKT dasturlari yordamida paxsadevor me'moriy obidalarini saqlab qolish bo'yicha maxsus ishlanmalar ishlab chiqish va foydalanishga tavsiya qilish;

paxsadevor obidalarining arxitekturaviy kompozitsiyasi, tarixi, tuzilishi, qo'llanilgan qurilish materiallari va holati bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Xorazm viloyatida joylashgan paxsadevordan tiklangan me'moriy obidalar va an'anaviy uylar olingan.

Tadqiqotning predmetini paxsadevor me'moriy obidalarini saqlash va ta'mirlashning samarali usullarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida paxsadevor me'moriy obidalar tarixini o'rganish, arxeologik ma'lumotlar tahlili, statistik, qiyosiy, arxiv materiallari, me'moriy loyihalarni tahlil qilish, monitoring-kuzatuv, tajriba-sinov kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

antik davrga oid 12 ta, o'rta asrlarga oid 8 ta va XIX-XX asrlarga oid 16 ta paxsadevor yodgorliklarining me'moriy, qurilmaviy va ashyoviy xususiyatlari baholangan va ularning Xorazm shaharsozlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati isbotlangan;

Xorazmdagi paxsadevor me'moriy yodgorliklarini ta'mirlash ishlarini qisqartirishga asos bo'ladigan "Ma'lumotlar bazasi" ilk bora AKT vositasi yordamida elektron shaklda yaratilgan;

Deshon Qal'aning devorida 8 xil qorishmadan foydalanib otkazilgan tajribalar natijasida somon cho'plari, gilam juni va shakarli tarkibli loylar boshqa tarkibli loylarga qaraganda mustahkam va yemirilishga chidamli ekanligi aniqlangan;

"Qalajiq qal'a", "Oxunlar", "Ulli Hovli" va "Deshon qal'a" obidalarining devorlaridan olingan namunalarning mustahkamligi R_g (2,0-2,5MPa) yuqori ekanligi, ya'ni 70-80%ni tashkil qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xivadagi "Deshon qal'a" hududida joylashgan an'anaviy obidalarining hozirgi kundagi holati va transformatsion jarayonlari ochib berilgan;

Xiva shahridagi "135yillik an'anaviy uy", Ogahiy mahallasidagi 140-yillik "Lashkarboshi uyi" fasad qismi, XX-asrga oid Bog'ot tumanidagi "Eshonlar uyi", Xonqa tumanidagi "Ollobergan Gavdamboy uyi" va Yangiariq tumanidagi 1900-yilda tiklangan "Paxsa uy" topilgan va mutassadilarga ularni saqlash uchun roy'xatga olish boyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ekologik va texnogen salbiy ta'sirlar natijasida yo'qolib borayotgan - "Kat qal'a"ni, "Xazarasp qal'a"ni, "Qalajiq qal'a"ni, "Chodra hovli", Deshon qal'aning "Shohimardon" darvozasi, "Qirq Mulla" bo'yicha 3D MAX AKT asosida grafik taklif loyihalari ishlab chiqilgan hamda "Oxunlar" paxsadevor qoldiqlarini saqlab qolishda yengil qurilmalardan foydalanish tavsiya qilingan;

viloyatda turizmning yetakchi sohaga aylanishi paxsadevor me'moriy yodgorliklarning saqlanish darajasiga bog'liqligi isbotlangan, shu xususda "Janubiy Orolbo'yi hududida paxsadevor me'moriy yodgorliklari bo'yicha sayyohlik yo'nalishlari" mavzusidagi katalog tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, arxiv ma'lumotlariga tayanilgani, olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy laboratoriyalarda (Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriyasi, SamDAQU) bajarilganligi, mavzuning xalqaro va mahalliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, to'plamlarda e'lon qilinganligi, yakuniy natijalar yurtimizning vakolatli tuzilmalari tomonidan amaliyotda qo'llab-quvvatlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston me'morchiligi tarixi va nazariyasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga tarixiy shaharlardagi gilxomashyoli me'moriy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash loyihalarini bajarishda xalq me'morchiligining hozirgi kunda unutilgan o'ziga xos an'anaviy usullaridan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlarining faoliyatida, qadimiy shaharlarni rekonstruksiya qilish bosh rejalarni ishlab chiqishda, paxsadevor me'moriy obidalarining muhofaza zonalarini aniqlashda, gilxomashyoli arxitektura yodgorliklarini saqlash, qayta tiklash va konservatsiya qilishda milliy uslublarni qo'llagan holda zamonaviy me'morchilikni rivojlantirishda hamda oliy ta'lim muassalarida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi fanlarni, hamda kasb-hunar kollejarining arxitektura, qurilish, tarix va turizm yo'nalishlari bo'yicha fanlarni o'qitishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xiva me'moriy yodgorliklarining holatini baholash, saqlash va ta'mirlash tamoillarini yaratish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

Xorazmning shaharsozlik madaniyatini shakllantirishda ahamiyati katta bo'lgan 37-ta paxsadevor me'moriy yodgorliklari bo'yicha yaratilgan elektron shaklda "Ma'lumotlar bazasi" materiallari va Deshon Qal'aning devorida 8 xil qorishmadan foydalanib otkazilgan ilmiy-amaliy tajribalar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Axborot" ko'rsatuvi, "O'zbekiston 24", "Yoshlar" telekanali faoliyatida Xorazm viloyati televideniesining "Xorazm 24", "Kech yoqtilik" - Xayirli oqshom, "Assalom Xorazm" "Zamondosh", shuningdek "Xorazmnoma" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 8-yanvardagi 37-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi ko'rsatuvlarni ilmiy-amaliy dalillar bilan yanada boyitish, ommabopligini ta'minlash va davlatimiz moddiy-madaniy merosining ahamiyatini xalqimizga kengroq yetkazish imkonini bergan;

viloyatda hozirda saqlanib qolgan antik davrga oid 12ta, o'rta asrlarga oid 8ta va XIX-XX asrlarga oid 16ta paxsadevor yodgorliklari bo'yicha bajarilgan monitoring natijalaridan va "Qalajiq qal'a", "Oxunlar", "Ulli Hovli" va "Deshon

qal'a" obidalarining devorlaridan olingan namunalarning mustahkamligini aniqlash bo'yicha laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tajribaviy xulosalardan Xorazm viloyati hududidagi paxsadevor obidalarni joriy ta'mirlash loyihalarini bajarishda foydalanilgan (O'zR Madaniy meros agentligining 2025-yil 21-yanvardagi 01-07/233-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar paxsadevor me'moriy obidalarining asl holida saqlanishi, ularning mustahkamlik masalalarini va ta'mirlashga oid ishlarni to'g'ri tashkil qilish imkoniyatini yaratgan;

Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan paxsadevor obidalari bo'yicha to'rtta yo'nalishda tayyorlangan - "Qadimiy Xorazm paxsadevor arxitekturaviy obidalariga turistik marshrutlar" katalog ma'lumotlaridan mintaqada turizmni rivojlantirishga oid amaliy ishlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasi Xorazm viloyati turizm boshqarmasining 2025-yil 27-yanvardagi 02-05/71-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi sayyohlarga noyob paxsadevor me'moriy yodgorliklarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, keng targ'ib qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2ta xalqaro va 2ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi doirasida jami 19 ta ilmiy ishlanmalar, maqola va tezislari, shulardan: hammualliflikda: 1 ta elektron dastur (21.01.2025) № DGU 47590, 1ta ma'lumotlar bazasiga (21.01.2025) № BGU 1823, 1 ta ilmiy-amaliy tavsiyaga (07.02.2025) №008643 raqam bilan mualliflik guvohnomalar olingan, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan respublika ilmiy jurnallarida 6 ta maqola va 3 maqola xorijiy jurnallarda, xalqaro ilmiy konferensiyalarda 3 tezislari bilan ishtiroki, respublika ilmiy konferensiyalarda 7 tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Taqdimot materiallari prezentatsiyali slayddan iborat, dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida qismida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi asoslangan, shuningdek tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi haqida aytilgan, tadqiqotning ilmiy, amaliy yangiligi tavsiflangan, olingan tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi **"Qadimiy Xorazmda arxitekturaviy paxsadevor obidalar madaniyatining shakllanishi"** deb nomlanib, unda Xorazm vohasi hududida shaharsozlik va me'morchilikni shakllantirilishida gil xomashyoli obidalarining ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan. "Xorazm" atamasining tahlilida M. N. Bogolyubovning fikricha, Xorazm Xu-"yaxshi" "ma'qul", var (vara)- "devor", "marza", "g'ov", "qal'a", "qo'ra"

degan ma'nolarni bildirgan. Zm (zim, zem) esa - "yer", "o'lka", "diyor", "mamlakat" kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, "Xorazm" atamasi qanday shaklda qayd etilmasin, u "yaxshi qo'rali yer", "ajoyib qal'ali o'lka", "mustahkam qal'alari bor diyor", degan ma'noni anglatishi keltirilgan.

Xorazmda davlatchilikning shakllanishi, shaharsozlikni rivojlanishi, gilxomashyoli qal'a va qo'rg'onlarning tiklanishi haqida dastlabki yozma ma'lumotlarni 2700-yillik yubileyi nishonlangan (2001-yil) zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"dan topamiz³⁸.

Bir qator olimlarning yozib qolgan ma'lumotlariga asosan aytishimiz mumkinki, Vatanimizning moddiy va madaniy jihatdan eng boy hudulardan biri bo'lgan Xorazm qadimdan davlatchilik, fan va madaniyat, sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lganligini, aynan vohada qadimdan paxsadevor bino va obidalar shaharsozlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaganligi o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Shu xususda, aytish joizki, dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilgan S.P.Tolstovning "Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab", "Qadimiy Xorazm" kabi asarlarida paxsadevordan tiklangan qal'alar va qo'rg'onlar shaharsozlikni rivojlanishida muhim ahamiyatini qayd qilib o'tgan.

Ushbu tadqiqot ishini bajarish davomida gilxomashyodan tiklangan Xorazmning shaharsozlik madaniyatini shakllantirishda ahamiyatli bo'lgan qal'a va istehkomlarini quyidagicha davrlarda tahlil qilindi:

I-DAVR: Antik davrga oid paxsadevordan tiklangan me'moriy obidalar;

II-DAVR: Paxsadevordan tiklangan o'rta asrlarga oid me'moriy obidalar;

III-DAVR: Paxsadevordan tiklangan XIX-XX asrlarga oid me'moriy obidalar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, I-davr ya'ni antik davrga oid paxsadevordan tiklangan obidalar soni 12tani, II-davr ya'ni o'rta asrlarga oid obidalar soni 8tani va III- davr ya'ni XIX-XX asrlarga oid obidalar soni 16ta hamda Xiva shahri hududida saqlanib qolgan, hozirda ham ekspluatatsiyadagi aholi yashash uylari 166tani tashkil qiladi. III - davr ya'ni XIX-XX asrlarga oid Xiva shahridagi Ichan Qal'a va Deshon Qal'a hududida saqlanib qolgan, hozirda ham ekspluatatsiyadagi aholi yashash uylari eng ko'p, 64% ekanligini ko'ramiz. Shu bois ham Xorazmning an'anaviy turar-joylari haqidagi tadqiqotlarimizning natijalarini yoritishga harakat qilindi. Shu xususda, Iso Jabborovning quyidagi fikrlarini keltirilgan:- "Xorazm hovlilarining yana bir hususiyati shuki, ichki ayvon shimol tomoni tomdan baland ko'tarilib, aksi tomon tom sathida bo'lib, yoz paytlari tabiiy ventilyatsiya (shamol tortish) vazifasini bajargan. Hozirgacha ko'pgina Xorazm uylarida keng va baland ayvon qurilgan, ayrim joylarda qishloq hovlilari oldida tevaragi gujum (sada, chinor) daraxti ekilgan supali hovuz mavjud. Mazkur me'morchilik tipi jazirama issiqdan saqlanadigan fayzli joy hisoblanadi"³⁹.

Xiva ayvonlarining markaziy qismiga asosiy bitta yog'och o'ymakori ustun joylashtiriladi, uning vazifasi tomyopmadan tushayotgan yukni o'ziga qabul qilish tayanchi hisoblanadi. Ba'zi ayvonlarning ustunlarini bo'yi 7-8 metrgacha yetadi.

³⁸ Avesto. Videvdot kitobi. Mirsodiq Is'hoqov tarjimai. T.: -2007. -B.16.

³⁹ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1994. -B. 144.

Dissertatsiyada Xorazm turar joy me'morchiligi, qurilmaviy tuzilishi haqidagi tahlillar bilan bir qatorda, ularda ishlatilgan ashyolar to'g'risida ham to'xtalib o'tilgan.

Usta-me'morlar uylarni qurishda an'anaviy mahalliy xomashyodan foydalanishga katta e'tibor qaratishgan. Turli xomashyolar asosida tiklanadigan imoratlar mahalliy aholi shevasida "nigirik joy", "chatma", "bastirma", "paxsa joy" kabi nomlar bilan yuritib kelingan. XX asr oxiriga qadar uy-joylar qurilishida mahalliy tuproqdan tayyorlangan loy asosiy qurilish xomashyosi sifatidagi ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot doirasida Xiva shahri va boshqa tumanlarda mavjud bo'lgan bir qator "sinch-nigirik" va "paxsa joy"larni me'morchilik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Hatto, Madaniy meros agentligi Xorazm viloyati bo'limi tomonidan ro'yxatga olinmagan tarixiy uylarni qayd qildim. Jumladan, - Xiva shahridagi Zargarlar mahallasidagi "135yillik an'anaviy uy", Xiva shahri Eski Qiyot mahallasida joylashgan XX-asr oxirida tiklangan paxsadevor "Lashkarboshi uyi", bu uy xonlikdagi amaldorlarning qo'rg'on tipidagi yashash uyi tipiga kiradi. Shuningdek, Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi "Eshonlar uyi", Yangiariq tumanida Chiqirchi qishlog'i Angiariq mahallasida joylashgan, 1900-yilda paxsadevordan tiklangan uyda hozirda Sa'dulla Karimov yashamoqda. Uyni atrofida qurilgan devolar vaqt o'tishi natijasida buzilib ketgan. Hozirda faqatgina 6ta yashash xonalari mavjud. Xonqa tumanidagi "Ollabergan Gavdamboy uyi" 1910-yilda sinch-nigirik uslubida tiklangan bo'lib, ushbu tarixiy uylarni mutasaddilar tomonidan ro'yxatga olishi uchun ma'lumotlar taqdim qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra Deshon qal'a hududida tarixiy arxitekturaviy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan an'anaviy turar-joylar uch guruhga ajratilgan:

- I kategoriyaga tegishli bo'lgan turar-joy binolari – 36 ta;
- II kategoriyaga mansub bo'lgan turar-joy binolarining soni – 30 ta;
- III kategoriyaga kiradigan uylar soni – 41 ta;

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, voha uylarining qurilish an'alarida o'rta asrlar turar joy arxitekturasi an'alarining aksariyat alomatlari saqlab qolingan, deyish mumkin. Biroq, hozirgi vaqtga kelib uylar qurilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda ham transformatsiyalashuv kuzatilmoqda. Iqlim sharoitini inobatga olingan me'moriy qonuniyatlari va Xorazm vohasiga xos bo'lgan an'anaviy usullar unitilmoqda. Paxsadevor me'moriy obidalarda ishlatilgan qurilish ashyolari va ularning funksiyalari ham tahlil qilingan. Bunda, har bir tarixiy obida individual obida ekanligi, ularning qurilish materiallari va uslublari hamda biri-birini takrorlamasligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi bo'yicha xulosa qilib aytganda**, har qanday davlatchilikni rivojlantirishda, albatta qal'alar, qo'rg'onlar qurilishining ahamiyati katta bo'lgan. Xorazm hududidagi qal'alar oddiy loydan qurilgan, ammo ushbu paxsa devor yodgorliklari o'ziga xos murakkab arxitektura asosida, juda yuqori darajada arifmetik va geometrik hisob - kitoblar asosida qurilgan.

Shuningdek, Xorazm me'morchiligida giltuproqdan devor tiklashni 3 ta usuli tafsiflandi (faqat xom g'ishtli, paxsa va aralash) va paxsadan tiklangan obidalar va ularda ishlatilgan ashyolar hozirda ham qo'llanilishi, an'anaviyligi izohlandi.

Tadqiqot doirasida paxsadan qurilgan 5ta tarixiy uylar topildi va ularni Madaniy meros agentligi Xorazm viloyati bo‘limi ro‘yxatga olishiga tavsiya qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Arxitekturaviy paxsadevor obidalarining qurilmaviy tuzilishi va ular bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini tuzish”** deb nomlanib, tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki Qadimiy Xorazm qal‘alari oddiy paxsa loydan va xom g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, ushbu yodgorliklari o‘ziga xos murakkab arxitektura asosida juda yuqori darajada arifmetik va geometrik hisoblar asosida qurilgan. Me‘mor-ustalarning yuqori darajadagi texnologik bilimlar va qurilishni tashkil qila bilishlari natijasida mustahkam qal‘alar, qo‘rg‘onlar tiklangan va ularning ko‘pchiligi hozirda ham o‘zining “ikkinchi umrini yashab” kelmoqdalar.

Qadimiy Xorazmda qal‘alar oddiy loydan - paxsa devor, xom g‘ishtlardan qurilgan, ammo ushbu paxsadevor obidalarini ilmiy tadqiq qilganimda, ular o‘ziga xos murakkab arxitektura asosida, juda yuqori darajada arifmetik va geometrik hisoblar asosida qurilgan. Demak, hozirgacha saqlanib qolgan, yuqoridagi 37-ta obidalar uzoq o‘tmishimiz haqidagi “bebaho jonli kitoblar” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning rejalari va qurilish uslublari bir-birini takrorlamaydi, ya‘ni individual obidalaridir. Har bir qo‘llanilgan qurilishdagi uslublari juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, shaharni mudofaa qilishda va bino mustahkamligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Ichan – Qal‘a devorlari eramizdan oldingi V-IV asrlarda qurilgan bo‘lib, u mudofaa devori vazifasini o‘tagan. Qal‘a asrlar davomida bir necha bor ta‘mirlangan bo‘lib, unda o‘q otish uchun shinaklar qo‘yilgan, 4 ta darvozasi dunyoning to‘rt tarafiga qarab qurilgan. Hatto, boshqa qal‘alarda deyarli uchramaydigan devor orasiga maxsus xonalar va zinapoyalar ishlangan. Paxsadevordan tiklangan “Chodra Hovli” esa shahar tashqarisidagi xonning turar-joy binosiga mo‘ljallangan bo‘lib, u minora shaklida tiklangan ushbu paxsadevor obidalarining gir atrofi Xorazmning an‘anaviy paxsa devori bilan o‘ralgan.

Devorlar bir qator muhim elementlaridan tarkib topib, bular, jumladan, asos, devorning o‘zi, pilyastr, kontrofos (g‘isht tirgovich), shinak, burj, darvoza va boshqalardir. Oralig‘ida otish yo‘lagi bo‘lgan qo‘shdevor qadimgi Xorazm harbiy me‘morchiligida eng ko‘p qo‘llanilgan tadbiridir.

Ba‘zida devor mustahkamligini oshirish maqsadida devor ortiga tirgaklar-kontrofos qo‘yilgan. Qadimgi Xorazm binokorlik ishida zilzilaga qarshi xususiyatga ega eng qadimgi tadbirlardan bittasi, bu - obidalar asosini qum-paxsa yoki qum-g‘isht bilan ko‘tarish o‘ziga xos xususiyat bo‘lgan.

Platformani tiklash uchun dastlab, to‘g‘ri to‘rtburchakli maydon qalin g‘isht devor bilan o‘rab olingan. So‘ng uning ichini qum va xom g‘isht qavatlari bir-birini almashtirib to‘ldirib chiqib, sun‘iy platforma qurilgan. Qal‘a devorlari hamda kungura-burjlarining yuqori qismi sezilarli darajada tor, asos qismida esa ancha keng, ya‘ni devor sezilarli darajada nishab bo‘lgan, natijada platformaning yuqori maydonchasi pastkisiga qaraganda kichikroq o‘lchamda bo‘lgan. Qadimgi me‘morlar zilzila kuchlarini obidalarga ta‘sir etish qonuniyatini juda yaxshi bilganlar, degan xulosaga keldik. Poydevor balandligi yer sirtiga yetganda, poydevor bilan sokol orasiga kuchsiz loy qorishmasida bir qator g‘isht

terilgan. Bu ham qadimiy me'morlarning antiseysmik choralaridan biri hisoblangan. Bu holat binolarni zilzila ta'siriga yaxshi bardosh berishiga olib keladi. Eng asosiysi, Xorazmdagi 70% paxsadevor me'moriy obidalarining zamin qismini yer osti suvidan va zilzila kuchini so'ndirish maqsadida "qum yostiq" to'shamalar bilan mustahkamlashgan, sokol qismlariga esa "qamish" yotqiziqlar to'shalgan.

Paxsaning mustahkamlik ko'rsatkichlari pishiq g'ishtnikiga nisbatan ancha past bo'lganligi sababli baland obidalar qurishda, ya'ni qal'a devorlari balandligini oshirish maqsadida ularning ko'ndalang kesimini balandligi oshgani sayin enining o'lchami kamayib boradigan qilib qurganlar. Bu tadbir konstruksiyaning o'lchamining intensiv qisqarishi asosi yuzasiga ko'ra, qonunning yaqin ko'rinishida amalga oshirilgan⁴⁰.

